



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№23
25 декабрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
1-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-1**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-1**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1. Rahmatullayeva O'g'iljon Yuldashevna KONSTITUTSIYAMIZ - BAXTIMIZ POYDEVORI.....	7
2. Bahronova Dilfuza G'aniyevna BUGUNGI KUNDA INSON HUQUQLARI.....	8
3. Qo'ziyeva Mohigul Zoyirovna HUQUQSHUNOSLIK FANLARIDA NO'ANANAVIY DARSLARNI TASHLIK ETISH.....	10



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

KONSTITUTSIYAMIZ - BAHTIMIZ POYDEVORI

Rahmatullayeva O'g'iljon Yuldashevna
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 3-son
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
tel 97 362 08 12

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarda Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, ma'suliyat hissini oshirish, Ona Vatanimizni sevish, ko'z qorachig'idek asrash tuyg'usini tarbiyalash bilan birga, Vatan oldidagi fuqarolik burchini tuyish, insonlarga mehr-oqibatli bo'lishga undaydi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, qonun, huquq, erkinlik, burch, ma'suliyat.

Yer yuzida hamma narsa tartib asosida bunyod etilgan. Qayerda tartib bo'lmasa o'sha yerda notinchlik, buzilish, norozilik yuzaga keladi. Davlat va xalq o'rtasidagi, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, butun yer yuzida tinchlik va osoyishtalikni ta'minlab turuvchi kuch bu KONSTITUTSIYADIR.

Davlatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk damlaridayoq bu mustaqillikni saqlab turish, xalqning orzu niyatlari, o'y hayollarini amalga oshirishni qonuniy ta'minlash haqida bosh qotirdi va har tomonlama chuqur o'ylangan, davlat va xalq manfaatlarini teng tutuvchi, har bir insonning huquqini himoya qiluvchi kuchga ega bo'lgan qonunlar to'plamini ishlab chiqdi. Bu to'plam bizning bosh qomusimiz Konstitutsiyamizdir.

Konstitutsiyamizning moddalari bilan tanishar ekanmiz, yurtimizda yashayotgan har bir inson, xoh u o'z millatimiz vakili bo'lsin, xoh o'zga millat vakilidan tortib, to yurtimiz bag'rida ungan har bir mitti giyohgacha himoyaga olinganligining guvohi bo'lamiz. Konstitutsiyamiz muqaddima qismida ta'kidlanganidek, uning qabul qilinishida o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasi, xalqaro huquqning barcha e'tirof etgan qoidalari, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash kabi ezgu g'oyalarga tayanilgani bois milliy qonunchiligimiz shunday buyuk qudratga ega. Bizni, o'zbek xalqini dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar himoya qiluvchi qonuniy hujjat sabab, yurtimiz aholisi o'z oilasi bag'rida osoyishta, xotirjam yashamoqda, faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar, deyiladi. Menimcha, hech bir davlat qonunchiligida fuqarolarga bu kabi erkinlik berilmagan bo'lsa kerak. Davlat ishlarini boshqarishda oddiy xalqning ishtirokini ta'minlash bu insonning nafaqat o'zi, uning fikri, o'yi ham qadrlanishining yaqqol isboti emasmi?

Shunday ekan, ta'lim muassasasidan tortib har bir oilada ham farzandlarimizga yoshligidan qonunlarni hurmat qilish, har daqiqada ularga amal qilish lozimligini, bu bizning tinchligimiz, xavfsizligimiz garovi ekanligini anglatmog'imiz darkor. Sohibqiron Amir Temur ta'kidlaganidek, qayerdagi qonun hukmron bo'lsa erkinlik, adolat o'sha yerda bo'ladi.

Bizning haq- huquqimizdan tortib o'y- fikrimizgacha muqaddas bilib, bizni himoyalovchi Konstitutsiyamizni biz ham e'zozlaylik, qadrlaylik va o'zimizning Konstitutsiya oldidagi fuqarolik burchimizni ham unutmaylik. Atrofimizdagi insonlarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilaylik, belgilangan soliq va mahalliy yig'imlarni o'z vaqtida to'laylik. Atrof tabiiy muhitni asrab-avaylaylik. Eng asosiysi, bizning jonajon tuprog'imiz, o'z himoyasiga, bag'riga olgan Vatanimizni g'araz niyatli kimsalar, yot g'oyalar kirib kelishidan himoya qilishni unutmaylik. Shundagina kelajak avlodga bizdan Ozod va obod Vatan qolishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent «O'zbekiston» 2018-yil.
2. Boshlang'ich ta'lim 10-son 2015-yil oktabr.



BUGUNGI KUNDA INSON HUQUQLARI

Bahronova Dilfuza G'aniyevna
Navoiy viloyati Karmana tumani
13- maktab tarbiya va huquq fan o'qituvchisi
Telefon:+998(93) 157 56 65
bahronovadilfuza13@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shuni aytish mumkinki, inson huquqlari taraqqiyoti uzluksiz davom etuvchi, harakatdagi jarayon bo'lib, doimo takomillashib boradi. Inson huquqlariga oid norma va qoidalarni har bir shaxs qalbi va ongiga singdirish o'z navbatida, milliy o'zini anglashga hamda huquqiy faol jamiyat a'zosini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Inson huquqi, fuqorolik, inson , erkinlik,davlat ,siyosiy huquq, Konstitut-siya, vijdon erkinligi , dinga e'tiqod, totalitar tuzum .

Inson huquqi — shaxsning hayotiy ehtiyoji, yashashi, komil topishi uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur bo'lgan xususiyatlari. Inson huquqlari va erkinliklari tizimi o'z yaralish ibtidosi va rivojlanish mantiqiga ega. Adabiyotlarda „**inson huquqlarining uch avlod**“ bosqichi haqida ko'rsatilgan. Ular quyidagilardan iborat.

Inson huquqlarining „birinchi avlodi“ — fuqarolik va siyosiy huquqlar hisoblanadi.

Inson huquqlarining „ikkinchi avlodi“ — bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'siri ostida shakllandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoati rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro'y berdi.

Nihoyat, **inson huquqlarining** „uchinchi avlodi“ — „hamjihatlik huquqlari“ deb atalib, ular davlatlardan ustun turuvchi va kollektiv xarakterga ega. Umumiy e'tirof etilgan qoidaga ko'ra bu huquqlar: tinchlikka bo'lgan huquq, bexavotir tabiiy atrof muhitga bo'lgan huquq, insonniyatning iqtisodiy va madaniy merosidan foydalanish huquqi va boshqalar.

Inson huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo'lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo'lmasin hamma uchun bir xildir. Bu huquqlar Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga asoslangan. Inson Huquqlari xalqaro ko'lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadigan doktrinadir. Inson Huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo'lib u dunyoning ko'pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, viy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konventsionalar orqali tan olingan.

Inson huquqlari - insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik ja-miyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo'lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoklarga, zo'rvonlikka, inson sha'nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saklash huquqi, o'z sha'ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mut-laq Inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma Inson huquqlari nisbiy bo'lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to'xtatib qo'yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq Inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to'xtatishga (bekor qilishga) yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan (18— 52-moddalar). O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar (18-modda). Jumladan, yashash huquqi — har bir insonning uzviy huquqi. Inson hayotiga suiqasd qilish — eng og'ir jinoyat hisoblanadi (24-modda). Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim konunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi; qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka,



shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (25—26-moddalar). Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga; fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi xuquqiga ega (27—29-moddalar). Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xoh-lagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi (31-modda).

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Inson huquqlari va erkinliklarining ustunligidan kelib chiqadigan, xalqaro miq-yosda qabul qilingan yangi yuridik ta-moyil va talablarga asoslangan keng hukuqiy muhit vujudga keltirildi. Totalitar tuzumning tazyiq va zo'raonligidan hukuqiy me'yorlar sari keskin burilish yasaldi. Respublika qonunlarini Inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiklashtirish, mazkur sohada Milliy harakat dasturini ishlab chiqish, Inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, Inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, bu hujjatlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishning , barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar shu hujjatlar talablariga so'zsiz rioya qilishining mexanizmi yaratildi. Inson huquqlari va kafolatlari O'z. Res. Konst.ning 7,8,9,10 boblarida berilgan.

Foydaniilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Soljenitsin, A.S. Nobel ma'ruzasi. [Matn] / A. Soljenitsinning Nobel ma'ruzasi. 1972. 7-bet



HUQUQSHUNOSLIK FANLARIDA NO‘ANANAVIY DARSLARNI TASHLIK ETISH

*Qo‘ziyeva Mohigul Zoyirovna,
Navoi viloyat Qiziltepa tumani
15-umumiy o‘rta ta’lim maktab
Tarix-huquqshunoslik fani o‘qituvchisi*

Anotatsiya: Maqolada huquqshunoslik fanlarini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, ularni qo‘llashning muhimligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va o‘quv mashg‘ulotlarini samaradorligiga erishish pedagogic texnologiyalarga qanchalik bog‘liqligi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, ilg‘or, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijodkor o‘qituvchi.

Mustaqil davlatimizni rivojlantirish istiqbollari har tomonlama bilimli, yoshlar qo‘lida bo‘lib, bu ulardan yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish huquqni puxta bilishni talab qiladi. Huquqiy bilim berish orqali huquqiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi va huquqiy ong shakllantiriladi.

O‘quvchi-yoshlarga huquqiy bilim berish, ularda milliy huquq tizimi to‘g‘risida tasavvur uyg‘otish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonun ustuvorligini anglash, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini yuzaga keltirishda ta’lim muassasalarining hamda biz pedagoglarning o‘rni alohida mazmun kasb etadi. Ta’lim muassasalarida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan huquqiy ta’limning asosiy maqsadi aynan bir vazifa, o‘quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, ularning qonun va qoidalarga itoatkorlik bilan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilishi lozim. Bu o‘rinda har bir darsga alohida yondoshgan holda, o‘quvchilarga ta’lim tarbiya berishning ilg‘or usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. “2017-2021- yillar harakatlanish strategiyasi” da Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev ta’lim tizimini, ayniqsa huquqiy tizimni rivojlantirish orqali aholi hiqiqiy ong va madaniyatini yuksaltirishga erishish zarurligi, buning uchun ta’lim tizimida islohatlarni yanada chuqurlashtirish haqida alohida to‘xtalib o‘tdi.

Huquqiy ta’limni inovatsion metodlar vositasida tashkil etish orqali huquqiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi. Umumta’lim maktablarida huquqiy ta’limni samaradorligini oshirish orqali o‘quvchilarni mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlanish, hayotiy maqsadni belgilay olish, ma’naviy-axloqiy xulq-atvorini takomillashtirish, kasbiy faoliyat yo‘nalishini belgilab olishga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘lishga erishish mumkin. O‘quvchilar ongiga ijtimoiy munosabatlarning huquqiy me‘yorlarni singdirish, ularni nobaqbul hatti-harakatlar sodir etishdan himoya qiluvchi mezonlar ekanligi haqida tasavvur hosil qilish, o‘quvchilarda quyidagi holatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi:

1. Yoshlarda huquqiy me‘yorlar, qonunlarning nafaqat davlat, balki shaxs manfaatlarini birdek himoya qilishga nisbatan ishonchning shakllanishiga erishish;

2. O‘quvchilarni huquqqa oid bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyoj va qiziqishining yuzaga kelishini ta’minlash;

3. O‘quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me‘yorlar, qonunlarga nisbatan hurmat va itoatkorlikni qaror toptirish;


4. O‘quvchilarda har qanday ko‘rinishdagi huquqbuzarlikka qarshi kurashish tuyg‘usini tarbiyalsh;

5. O‘quvchilarda ijtimoiy –huquqiy madaniyat va faollikni qaror toptirish;

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarni qiziqishini orttirish, ularning ta’lim jarayonida faolligi mustaqil rag‘barlantirib turilishi, o‘quv materiallarini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularni mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, baxs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loixa, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.



O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, albatta bunda birinchi navbatda fan, mavzu, o'quvchilar yoshi, kasbiy yo'naltirilganligi va shu kabi bir necha jihatlarga e'tibor berishi kerak. Masalan VIII-sinf " Davlat va huquq asoslari" darsligidagi "Jamiyat", "Davlat" mavzularini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan: " Muammoni hal qilish texnologiyasi" dan foydalanishimiz mumkin.



Muammoni hal qilish uslubi – muammoni aniqlash va uni hal qilishning eng maqbul yo'llarini topishga o'quvchining tayyorgarligini tekshirib ko'rish uchun qo'llaniladi. O'quvchi bunda birinchi bo'lib muammoni aniqlab oladi. So'ngra muammoni yechish uchun axborotlarni izlaydi. Izlanish chog'ida kerakli jurnallar, monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalardan foydalanish mumkin. Bu bilan o'quvchi olgan

ma'lumotlaridan xulosa chiqarishi va uni amalda tadbiiq etish etish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Darslarni zamonaviy texnologiyalar asosida o'tish orqali o'quvchilarda qonunlar, yuridik adabiyotlar bilan mustaqil ishlay olish ko'nikmsini shakllantirish, ularni erkin fikrlash mavzu yuzasidan o'zining mustaqil fikrini bildira olish, mavzuni nazariy jihatini xolisona ilmiy taxlil etish xususiyatlarini rivojlanishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M „ Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.:”O‘zbekiston”2017
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harahatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli farmoni
3. WWW.uzedu.uz
4. X.T.Odilqoriyev “ Davlat va huquq nazariyasi ”

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(1-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
